

## O'XSHATISHLARNING YONDOSH HODISALARGA MUNOSABATI

**Murtazoyeva Mohidil Kamolovna,**  
*Buxoro xalqaro universiteti magistranti*

**Ilmiy rahbar: Saidov Yoqub Siddiqovich,**  
*Buxoro davlat universiteti professori,  
filologiya fanlari doktori*

**Annotatsiya.** Maqolada soʻzning koʻchma maʼnolari taraqqiyotining lingvistik asoslari ochib berilgan, oʻxshatish koʻchma maʼno hosil etishning eng samarali va keng tarqalgan turlaridan biri ekanligi faktik materiallar bilan dalillangan, uning koʻchma maʼno turlaridan oʻzaro farqi va oʻxshash jihatlari koʻrsatib oʻtilgan, yondosh hodisalarga, xususan, trop tarkibida asosiy oʻringa ega metaforalarga munosabati aniqlangan.

**Kalit soʻzlar:** soʻz, koʻchma maʼno, trop, nominativ maʼno, figural maʼno, oʻxshatish, metafora, metonimiya, vazifadoshlik, sinekdoxa.

**Аннотация.** В статье раскрываются лингвистические основы развития переносных значений слов, на основе фактических данных доказывается, что сравнение является одним из наиболее эффективных и распространенных типов формирования переносных значений, показываются его различия и сходства с другими типами переносных значений, а также определяется его связь с родственными явлениями, в частности, с метафорами, играющими ключевую роль в тропе.

**Ключевые понятия:** слово, переносное значение, троп, именительное значение, образное значение, сравнение, метафора, метонимия, сравнение, sinekdoxa.

**Abstract.** This article explores the linguistic foundations of the development of figurative word meanings. Using factual evidence, it demonstrates that simile is one of the most effective and widespread methods of forming figurative meanings. It also demonstrates its differences and similarities with other types of figurative meanings, and identifies its relationship with related phenomena, particularly metaphors, which play a key role in tropes.

**Key concepts:** word, figurative meaning, trope, nominative meaning, figurative meaning, comparison, metaphor, metonymy, simile, synecdoche.

**Kirish.** Ayonki, tilda soʻzlar dastlabki shakllanishi davrida muayyan narsa, tushuncha yoki voqelikning aynan nomi sifatida yuzaga keladi, dastlabki ishlatilish davrida bir maʼnoli boʻladi. Keyinchalik ayrim soʻzlarning mazmunida oʻzgarishlar yuz berib, ular koʻp maʼnoli soʻzga aylanadi. Koʻchim soʻz yoki soʻz birikmasining oʻz maʼnosidan boshqa maʼnoda qoʻllanishidir. Koʻchma maʼnoni quyidagicha izohlash mumkin: 1) maʼno koʻchishi asosida kelib chiqqan maʼno; 2) asl maʼnosidan boshqa maʼnoda qoʻllash bilan hosil boʻluvchi maʼno.

Leksik maʼnolar ilmiy adabiyotlarda bosh maʼno va hosila maʼno, toʻgʻri maʼno va yasama maʼno, toʻgʻri maʼno va koʻchma maʼno, turgʻun maʼno va erkin maʼno, nominativ maʼno va figural maʼno kabi birikmalar bilan atab kelinmoqda. Bu terminlar ayni bir hodisani turlicha ifodalaydi, xolos. Mohiyatan ular bir voqelik yoki tushunchani aks ettiradi.

**Adabiyotlar tahlili.** O‘xshatish va ko‘chma ma‘no hodisalari jahon va o‘zbek tilshunosligida keng o‘rganilgan. Aristotel “Poetika” asarida trop va metafora masalalariga asos solgan.

O‘zbek tilshunosligida M. Mukarramov o‘xshatishlarning struktur va semantik xususiyatlarini, M. Mirtojiev metaforaning semasiologik jihatlarini o‘rgangan. N. Mahmudov o‘xshatishlarni obrazli tafakkur mahsuli sifatida talqin qilgan, M. Yoqubbekova esa ularning lingvopoetik xususiyatlarini tahlil qilgan.

Fitratning “Adabiyot qoidalari” asarida o‘xshatish va metafora uzvlari masalasi dastlabki ilmiy asosda yoritilgan. Umuman, mavjud tadqiqotlar o‘xshatish va metaforaning o‘zaro munosabati hamda ularning badiiy nutqdagi o‘rnini ochib berishda muhim ahamiyatga ega.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy va struktur-semantik tahlil metodlaridan foydalanildi. O‘xshatishlarning lingvistik tabiati va ularning metafora, metonimiya hamda boshqa trop turlari bilan munosabati badiiy matnlar asosida o‘rganildi.

Tadqiqot jarayonida nazariy manbalar tahlili hamda faktik materiallarni umumlashtirish usuli qo‘llanildi. Shuningdek, o‘xshatish va metafora o‘rtasidagi farq va o‘xshashliklar qiyosiy tahlil asosida aniqlanib, ularning funksional xususiyatlari yoritildi.

**Tahlillar va natijalar.** Ko‘chma ma‘no o‘xshatish, mubolag‘a va kinoya asosida so‘zni boshqa ma‘noda qo‘llanishi natijasida hosil bo‘ladi. Ko‘chma ma‘no tilning taraqqiyoti natijasida yuzaga keladi. Bunda borliqdagi narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holatning nomi ma‘lum bir asosga ko‘ra boshqa narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holatning nomi sifatida qo‘llanadi.

Ko‘chimda ma‘lum bir predmet, hodisa, jarayon va xususiyat nomini atovchi so‘z yoki so‘z birikmasi boshqa predmet, voqea, jarayon va xususiyatni bildirish uchun qo‘llanadi. Ko‘chma ma‘nodagi so‘z o‘zining kelib chiqishiga asos bo‘lgan so‘z yoki so‘z birikmasi bilan o‘xshashlik yoki aloqadorlik jihatdan bog‘liq bo‘ladi. Xususiyat va belgilari bilan bir-biriga yaqin bo‘lgan ikki predmet yoki hodisani chog‘ishtirish, o‘xshatish ko‘chma ma‘noga asos qilib olinadi, ya‘ni biror predmet yoki voqea-hodisa haqida aniq, yorqin tasavvur hosil qilish uchun unga boshqa biror predmet yoki voqeaning belgisi ko‘chiriladi yoki o‘xshatiladi.

Masalan, *arslon* so‘zining o‘z lug‘aviy ma‘nosi *mushuksimonlar oilasiga mansub bahaybat yirtqich sutemizuvchi hayvondir*. Bu nom *jasur, bahodir, dovyurak odamga* ham nisbat beriladi. Arslon hayvonidagi jasurlik, bahodirlik, kuchlilik, shiddatkorlik kabi belgilar e‘tiborga olinib, mazkur nom shunday xususiyatli kishilarni tavsiflash uchun qo‘laniladi.

Misol: *Mash‘um Kalon minorasidan o‘limga itarilgan el arslonlarining na‘rasi qal‘a osmonini hamon larzaga keltirmoqda*. Sh.Toshmatov, Erk qushi.

Muayyan bir so‘z ko‘plab ko‘chma ma‘noda qo‘llanilishi mumkin. So‘zning ko‘chma ma‘nosi faqat matnda, gapning tarkibida aniqlanadi. Ko‘chma ma‘no jumla tarkibidagi

boshqa soʻz yordamida anglashiladi. Koʻchimlar tasviriy vosita boʻlib, ularning asosini mantiqiy tushuncha hisoblangan oʻxshatish va chogʻishtirish tashkil etadi. Koʻchma maʼno soʻzlar, qoʻshimchalar, iboralar va tasviriy ifodalar doirasida voqe boʻladi.

Koʻchma maʼnoda qoʻllangan soʻzlarning umumiy nomi trop (koʻchim) deb yuritiladi. Trop (*yun.* nutqning oʻzgarishi, boshqacha tus olishi) — nutqning ifodaviyligi va taʼsirchanligini oshirish maqsadida soʻz va iboralarning koʻchma maʼnoda qoʻllanishidan iborat poetika va stilistika tushunchasi; shunday maʼnoda qoʻllangan soʻz va iboralarning umumiy nomi .

*Trop* termini dastlab yunon faylasufi Aristotel tomonidan ayrim troplarni, xususan, metaforani oʻrganish jarayonida qoʻllangan. Tropning koʻp tarqalgan turlari: istiora (metafora), metonimiya, sinekdoxa, majoz (allegoriya), kinoya, sifatlash (vasf, epitet), kichraytirish (litota), mubolagʻa (giperbola), jonlantirish (tashxis, intoq), perifriza va boshq .

Koʻchim turlari ayrim ilmiy adabiyotlarda tasniflanganligini kuzatish mumkin. Masalan, B.Oʻrinboyev, R.Qoʻngʻurov, J.Lapasovlarning “Badiiy tekstning lingvistik tahlili” qoʻllanmasida koʻchimlar soʻz maʼnosining miqdoriy va sifatiy koʻchishi eʼtiborga olinib, quyidagicha tasnif qilingan:

“1. Soʻz maʼnosining miqdoriy koʻchishiga asoslangan troplar: a) giperbola; b) meyozis. 2. Soʻz maʼnosining sifatiy koʻchishiga asoslangan troplar: a) metafora; b) metonimiya; v) ironiya”. Qolgan tasviriy vositalar mazkur koʻchimlarning koʻrinishi sifatida beriladi: “simvol, jonlantirish, epitet, apastrofa – metaforaning; perifriza, sinekdoxa, allegoriya, epitet – metonimiyaning; antifriza, sarkazm – ironiyaning; litota – meyozisning koʻrinishlaridir”.

Koʻchimlar mazmuniga koʻra, odatda, ikkiga — sodda va murakkab koʻchimlarga boʻlinadi. Oʻxshatish, sifatlash kabilar sodda koʻchimlar, metafora, metonimiya sinekdoxa, jonlantirish, ramz kabilar esa murakkab koʻchimlardir. Sodda koʻchimlarda bir narsaning biror sifati taʼkidlab koʻrsatiladi yoki ikkinchi bir narsaning biror belgisiga oʻxshatiladi. Murakkab koʻchimlarda esa biror narsa ikkinchi bir narsa orqali ifodalanadi, jonsiz narsa jonliday tasvirlanadi. Koʻp maʼnoli soʻz metafora, metonimiya, vazifadoshlik, sinekdoxa kabi usullar bilan hosil boʻladi.

Maʼlumki, *metafora* yunoncha soʻz boʻlib, *koʻchirish* degan maʼnoni anglatadi. U koʻchma maʼno hosil qilishning eng keng tarqalgan usullaridan biridir. Metaforalarning lisoniy, mazmuniy va uslubiy xususiyatlari oʻzbek tilshunosligida ancha keng oʻrganilgan. Tadqiqotlarning aksariyatida metaforaning asosiy mohiyatini oʻxshatish, qiyoslashdan iborat mantiqiy amal tashkil etishi aytilgan.

Qadim tarixiga ega boʻlgan, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-maʼrifiy jihatdan taraqqiy etgan har bir xalqning tilida metaforalar tizimi oʻziga xos tarzda shakllangan. Metaforalarning katta bir qismi miflarga, animizmga borib taqaladi. Bu metaforalar tizimi avlodlardan avlodga oʻtib, tarkibi boyib boradi. Metaforalar xalqning oʻziga xos

an'analari, rasm-rusmlari, urf-odatlarini, diniy e'tiqodi va madaniyati bilan bevosita bog'liq tarzda paydo bo'ladi. Kishilarning kundalik hayotida ko'p aloqador bo'lgan, ular tomonidan tez-tez murojaat etiladigan aniq narsa, o'simlik va hayvonlar nomi metaforalashtiriladi. O'zbek tilida metaforalar tizimi xalqning dunyoqarashi, madaniyati, ruhiyati bilan uzviy holda shakllangan.

Metafora hamma vaqt o'xshashlik asosida yuzaga kelsa ham, biroq u o'xshatishdan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi:

1. O'xshatishlarda so'zlar o'zining to'g'ri ma'nolari bilan qiyoslansa, metaforada so'zlar doimo ko'chma ma'noda qo'llaniladi.

2. O'xshatishda ikki komponent: o'xshatiluvchi ob'ekt va o'xshovchi obrazlar ma'lum bir belgi asosida bir-biri bilan qiyoslansa, metaforada o'xshovchi obrazni ifodalagan so'zning o'zi o'xshatiluvchi ob'ekt va o'xshatma belgi mazmunini ham o'zida olib keladi. Ya'ni metafora bir komponentlidir.

3. O'xshatishlar kengayib, birikma, bir gap, hatto bir abzast holida kelishi mumkin. Metaforalar esa bunday kengayish xususiyatiga ega emas. Ular ko'chma ma'nolikni ifodalagan bir so'zdan yoki so'z birikmasidan iborat bo'ladi.

4. Lingvistik metaforalar so'zning ma'no doirasini kengaytirib, yangi semema hosil qilish uchun baza bo'ladi. O'xshatishda bunday xususiyat faqat metafora orqali ifodalanadi.

5. O'xshatishlar ko'pincha *-day//dek*, *-simon*, *-larcha*, *kabi*, *singari*, *o'xshamoq* va boshqa vositalar orqali yuzaga keladi. Metaforalarda bu vositalarga ehtiyoj sezilmaydi.

Tilshunos olim R.Qo'ng'urovning ta'kidlashicha, metafora yashirin o'xshatishdir. Ammo u, — deb yozadi olim, — oddiy qiyosdan farq qiladi. Agar oddiy qiyos har doim asosiy ikki a'zodan tashkil topsa (ya'ni qiyos qilinuvchi va qiyos qilinadigan predmet), metaforada faqat ikkinchi a'zo — o'xshatilgan narsa qoladi, o'xshagan narsa tushiriladi, lekin u kontekstdan ochiq sezilib turadi, demak, metaforada tasvirlanayotgan predmet ana shu ikkinchi a'zo orqali idrok qilinadi.

Anglashiladiki, metaforada o'xshatishning to'rtta uzvi (o'xshagan, o'xshatilgan, o'xshatish qaydi, o'xshatish vositasi)dan uchta (o'xshagan, o'xshatish qaydi, o'xshatish vositasi) tushiriladi, faqat bittasi, ya'ni o'xshaganigina voqelanadi. Tilshunos M.Mirtojiev "O'zbek tili semasiologiyasi" monografiyasida metaforalarning uch turi borligini qayd etadi. Ular quyidagilar: oddiy metafora, personifikatsiya (jonlantirish), sinesteziya. Boshqa ilmiy ishlarda ham metaforalarning ushbu turlarga bo'linishi aytib o'tilgan.

Ta'kidlash joizki, metaforalarning o'ziga xos xususiyat-u tabiati, poetik mohiyat-mazmuni xususidagi ilmiy talqinlar unga oid atamalarning turlichaligini hisobga olmaganda bir-biridan deyarli farq qilmaydi. Ularning barchasida metaforalar nom ko'chishning alohida bir turi sifatida e'tirof etilgan, badiiy tasvirdagi ta'sirchanlik, ixchamlik, emotsional-ekspressivlik metaforada o'xshatishga qaraganda kuchliroq ekanligi

ta'kidlangan, ijodkor ahli asar g'oya-mazmunini yorqin ifodalash maqsadida badiiy tasvirning bu turidan keng foydalanishga harakat qilganligi qayd etilgan.

Haqiqatan ham, metaforalar his-tuyg'u va kayfiyatni aniq, yorqin, ixcham, ta'sirbaxsh tarzda etkazib berish imkonini beradi. U o'zining ixchamligi, soddaligi, semantik jihatdan serma'noliligi bilan she'riy matnning qisqa shakliga juda mos keladi va uning badiiyatini oshirishga muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Yuqorida aytilganidek, metaforik hodisada muayyan bir narsa, belgi, harakat ikkilamchi nomlanadi. Mumtoz adabiyotda ikkilamchi nomlash badiiy-estetik mohiyat kasb etishi uchun unga quyidagi umumiy talablar qo'yilgan:

ijodkorning g'oyaviy-badiiy niyatiga bevosita xizmat qilishi lozim va u maqsadli qo'llanishi, asar mazmuniga, g'oyaviy yo'nalishiga mos ravishda bo'lishi shart;

xalqning badiiy-estetik tafakkurini boyitishi, emotsional – ekspressivlik ifoda etishi, estetik qimmatga ega bo'lishi kerak;

metaforalarni haddan ziyod qo'llash badiiy asarning g'oyaviy-badiiy jihatlariga salbiy ta'sir ko'rsatganidek, fikrni ularsiz ifodalash ham asar qimmatiga putur etkazishi shubhasizdir. Shuni e'tiborga olib, metaforalarni me'yorida qo'llash lozim;

keng xalq ommasi uchun tushunarli bo'lishi, u tomonidan qabul qilinishi va ma'qullanishi shart;

o'xshatish timsollari hayotiy haqiqatga to'g'ri kelishi, unga zid bo'lmasligi, ikki ob'ekt o'rtasidagi nozik mutanosiblik mantiqan mos bo'lishi va ular leksik va grammatik jihatdan belgilangan me'yorlar asosida ifodalanishi kerak;

o'xshatish timsollari yangi, go'zal, betakror va ta'sirbaxsh bo'lishi lozim.

Shu o'rinda ayrim mulohazalarni aytib o'tish o'rinlidir. Bu metafora (istiora) uzvlari va ularga doir qo'llanilgan atamalarga tegishli fikrlardir. Ma'lumki, istioralarda, asosan, ikkita uzv mavjud bo'ladi. Fitrat "Adabiyot qoidalari" asarida ularning birini *o'xshagan*, ikkinchisini esa *o'xshatilgan* deb atagan. O'zbek filologiyasida olimning ushbu qo'llanmasidan keyin yaratilgan ilmiy asarlarda metafora (istiora) uzvlari turli atamalar bilan ifodalanib kelinmoqda.

Chunonchi, M.Mirtojiyev nomdoshlovchi va nomdoshlanuvchi, M.Mukarramov o'xshatiluvchi ob'ekt va o'xshovchi obraz, A.Rustamov o'xshatilmish va o'xshovchi, N.Mahmudov qiyos sub'ekti va qiyos etaloni, M.Yoqubbekova o'xshatish asosi va o'xshatish timsoli deb atagan. Anglashiladiki, ayni bir hodisa turli nomlar bilan ifodalanib kelinmoqda. Bu esa, tabiiyki, har xil chalkashlik, qiyinchilik va murakkabliklarni yuzaga keltiradi.

Nazarimizcha, bu borada aniq bir to'xtamga kelib, metafora (istiora) uzvlari nomini bir xil shaklda qo'llashga o'tish shart. Turli xillikni bartaraf etish uchun esa, eng avvalo, Fitrat qo'llagan atamalar hodisaning mohiyat-mazmunini mantiqan to'g'ri, aniq, ixcham ifodalagani, o'z tilimizga xos lug'aviy birliklar bo'lgani bois ularni iste'molga qayta kiritib, muntazam qo'llashga o'tish maqsadga muvofiqdir.

**Xulosa.** Xulosa tarzida aytish mumkinki, o'xshatishning yondosh hodisalar, chunonchi, metaforaga munosabatini ochib berish tilshunoslik uchun juda muhim muammolardan biridir. Uning metaforadan asosiy farqi shundaki, o'xshatishda so'z o'zining to'g'ri ma'nosi bilan qiyoslanadi, metaforada esa so'z doimo ko'chma ma'noda qo'llaniladi, o'xshatish *-day//-dek, -simon, -larcha, kabi, singari, o'xshamoq* vositalari orqali shakllanadi, metaforada esa bu kabi vositalar mavjud bo'lmaydi. O'xshatish va metaforaga doir xususiyatlarni tadqiq etishni ijtimoiy tafakkur taraqqiyoti har doim taqozo etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Аристотель. Поэтика. – Т.: Янги аср авлоди, 2011.
2. Ёкуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари. –Т.: Фан, 2005.
3. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. -Т.: Зарқалам, 2006.
4. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Т.: Мумтоз сўз, 2010.
5. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. –Т.: Фан, 1976.
6. Фитрат. Адабиёт қоидалари. Танланган асарлар. V жилдли. –Т.: Маънавият, 2006. -IV жилд. –Б. 11-88.
7. Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2011. – № 3. – Б. 19-24.
8. Маҳмудов Н. Ўхшатишлар ва миллий образ // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2013. – № 1. – Б. 3-8.

Ajiniyaz atindagi  
NOKIS MAMLEKETLIK  
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI  
N M P I  
1934